

XALQARO SHE’RIYAT

Fei Yifei

作者简介

费一飞，中国当代优秀诗人，浙江省杭州市人。早年入伍，曾任空军某部军训部门负责人，中校军衔。军队转业后进入金融保险业，历任阳光财产保险浙江省分公司总经理、阳光人寿保险公司总裁、阳光财产保险公司总裁。一路走南闯北，坚持用诗歌创作收藏沿途风景，记录人生感悟。浙江省作家协会会员，中国诗歌学会会员，作品刊发于国内外各种报刊、平台、选本。出版诗集《我的河》《一边走，一边爱》及散文集、纪实文学等多部。曾获第七届中国当代诗歌奖、中华精短散文优秀作品奖、**2024年度国际最佳诗人称号、黑山共和国《Nekazano》文学奖（2025年）、第23届黎巴嫩国际文学奖等**。部分诗作被翻译成英语、意大利语、德语、荷兰语、法语、西班牙语、阿拉伯语、瑞典语、俄语、芬兰语、挪威语、希腊语、保加利亚语、波斯尼亚语、孟加拉语、韩语等十余种外国文字。

Fei Yifei — zamonaviy xitoy adabiyotining yorqin shoiri. U Chjetszyan viloyatining Xanchjou shahrida tug‘ilgan. Yoshligida armiyada xizmat qilib, podpolkovnik unvonigacha yetgan. Keyinchalik moliya va sug‘urta sohasida yirik rahbarlik lavozimlarida faoliyat yuritgan.

Safarlari davomida ko‘rgan manzaralari va hayotiy mushohadalarini she’riyatga aylantirgan. U Chjetszyan yozuvchilar uyushmasi va Xitoy she’riyat jamiyati a’zosi. Asarlari turli mamlakatlarning gazeta-jurnallarida, adabiy to‘plamlarda chop etilgan.

Shoirning “Mening daryom” (My river) va “Yurish va sevish” (Walking and Loving) kabi she’riy kitoblari, nasriy hamda hujjatli asarlari nashr qilingan. Uning ijodi Xitoy zamonaviy she’riyat mukofoti, Xitoy ixcham nasr mukofoti, “Yil shoiri – 2024”, shuningdek, Chernogoriyaning Nekazano adabiyot mukofoti (2025) va 23-Livan xalqaro adabiyot mukofoti kabi yuksak e’tiroflarga sazovor bo‘lgan.

Fei Yifeining she’rlari ingliz, italyan, nemis, fransuz, ispan, arab, rus va boshqa o‘nlab tillarga tarjima qilingan.

费一飞[中国]

一棵树冻死了（外五首）

院子里一棵树冻死了
春天了，绿荫没有回到它的枝头
不会再开花，结出去年的果
因此显得碍眼
我决定把它砍掉，重新种一棵
就在拿起砍刀的时候
看见枯枝里，有一只巢
不知是哪只鸟留下的纯手工艺品
像一只古老的碗，准备接住
天空里掉下的事物
不知道它今年还会不会回来
还会在这里孵卵吗
终于不忍下手，一个院子里
多一棵枯树，将我的在意与期待
留在那里，有什么不好

开春

立春，雨水。节气的表达让人春心荡漾
而草木仍无动于衷
凡恒久的事物，自有古老的律法
不在于名词的艳丽

春节难得不下雨，不禁燃，杭城楼角炮声相闻
气温飙升至二十七摄氏度
从楼上望运河，柳芽才露一点点
外孙女跑了一圈，带回来一脸汗尖尖
吹乱了的蝴蝶结，是最美的春汛

全国报复性返乡，旅游，我则闭门不出
一个人读书，习字，吃八宝饭
看了一会春晚，觉得还不如写诗
或者睡一个好觉

模拟春眠不觉晓，任窗外几只鸟
在梦里叫，叫，叫

插梅

路过灵峰，忍不住
折了三枝梅

想起去年喝绍兴花雕酒
那瓷瓶，颇有些梅风
就找出来洗了

插上。每天加一次水
坐在旁边看好几回

其实花还小，挤在一起的蕾
知道有人在看它
就又开了几朵

那几天太阳慵懒
感觉日子也慢了一些

豆荚开花了

天空湛蓝，白云放射光芒
地里豆荚开花了。这是春天

约定的绽放
所有生命都在这个早晨起身
奔向季节的山顶。这时
如果母亲从医院回来
她一定会来走走，看看
她会讲，浦东一条河边的自留地里
也已蜂蝶翻飞
一飞啊，檐下有只空篮
快去装满新鲜的晨露和鸟鸣
自然生长的事物随性静美
紫色的小花拂动欣喜的微澜
而我，在低微的声音里
清空了一冬的荒凉

一只鸟巢

清晨，院子里的树上
发现一只鸟巢
真让人惊喜
我做不出这么漂亮的暖房
仰头看了很久，希望
里面已经有卵，最好是两枚
这样将来它们可以吵架
可以依偎，或者互相寻找
接下来应该是双亲
轮流来孵它们
既有母爱，也有父爱
我把这种圆满想像成太阳和月亮
双倍幸福的含义
那么，从今天开始
我要多养些虫子

警惕流浪猫觊觎，尽量不弄出噪声
总之要更加用心地爱护这个家
树长的好
鸟也会越来越多
所有心动的事物我都要多关心一些

犹豫

下午江水平缓，我敲开
一棵核桃。沟壑纵横，起伏
原来波涛在内部

近日体虚，本来是想补肉身
但如果补脑，我犹豫不决
它的思想太深奥了
不适合一个写诗的人

Muzlagan daraxt

Hovlimdagi daraxt muz bo'lib qotgan,
Bahor keldi, ammo yashil qaytmagan.
Na gul ochar endi, na meva solgan,
Yoqimli ko'rinmas ko'zlarga endi,
Hech kim qiyo boqmas, qarovsiz qolgan.

Kesmoqchi edim, yangisini ekib,
Mana, qo'limda bolta, kesaman albat,
Ammo qarasamki, shoxlar aro chuqur,
Bordir qushning uyasi, misoli san'at.
Qanday kesay axir, bu gunoh erur.

Osmondan tushganin tutishga tayyor,
Mo'jiza uycha bo'lurmi yana?

Qaytarmi qush yana? Bilmay hayronman,
Tuxumin qo‘yarmi bu joyda yana,
Kelib chirqillarmi tong saharlarda?

So‘ng uzoq o‘yladim, fikrimdan qaytdim,
Boltamni qo‘ydimda o‘zimga aytdim:
Bir “o‘lik” daraxt hovlimda tursa,
Orzularimni ham bag‘rida quchsa —
Bu ham yomon emas, yaxshi bir narsa.

Erta bahor

Bahor boshlandi — “Yomg‘ir suvi” fasli,
Ko‘ngilni junbushga keltirar asli.
Ammo maysalar jim, daraxtlar sokin,
Qadimiy qonunlar kabi mustahkam, boqiy.

Bahor bayrami yomg‘irsiz o‘tmas,
Endi mushaklarning ovozi to‘ymas.
Hangjouning tomilarida aks-sado,
Gumburlab yangrar, beradi sado.

Havo yigirma yettiga chiqadi asta,
Tol kurtaklarin ochar ohista.
Nabiram yugurib, aylanib yurar,
Peshonasi terda yaltirab qolar.

Hilpirar shamolda mayin tuguni,
Bahorning jilvasi unda uyg‘uni.
Yurtda boshlanadi “qasosli” safar
Men esa yolg‘iz, sokin, xotirjam.

Kitob varaqlayman, xattotlik qilib,
“Sakkiz xazina” taomdan totib ko‘raman.
Bahor festivalin tomosha qilib,
So‘ng uyqu tomon yo‘lni olaman.

“Bahor uyquasi tong bilmas” deyman,
Qushlarning qo‘shig‘in tinglab behosdan.
Ularning navosi yurakka qadar,
Orzular ichida qo‘shiqday yangrar.

Olcha gullari

Lingfeng cho‘qqisidan o‘tarimda
Behos uchta olcha shoxini uzdim.
Yodimga birdan tushdi o‘tgan yil ichganim —
Shaoxingning “Huadiao” vinosi,
Olcha rangli chinni shishalik,
Uni topib, yuvdim, endi u — yorqin.

Shoxlarni joyladim,
Suv quydim har kun.
Ba‘zan yonida sukutda qolib,
Ularning sekin o‘shishin kutib,
Tomosha qilardim bo‘lsa hamki tun.

Gullar hanuz yosh,
Kurtaklari bir-biriga suykali turar,
Kimningdir nigohi erkalayotgandek.
Shuning uchunmikan, bu kurtakchalar,
Ochilib ketdi go‘yo bo‘sa olgandek....

Quyosh ham bu kunlarda erinchoq,
Oqshomgacha cho‘zilib chiqadi.
Hayot ham tuyular sekinlashgandek,
Go‘yo gullar bilan nafas oladi.

Loviya gullarin ochar

Moviy osmon — oppoq bulut,
Dalalarga taratar quvvat.
Bahor berdi o‘z va’dasin,
Tongda uyg‘otdi hayot nafasini.

Onam qaytsa shifoxonadan
Der edi mehr ila qarab:
“Pudong bo‘yida kapalak, ari,
Gullarda raqs tushadi bari.

Qara, Yifei, savating bo‘sh,
To‘ldir uni tong shabnamidan hush.
Qush qo‘shig‘i, bahor nafasi,
Tabiatning eng go‘zal asari.

Mayda loviya gullar jilvasi,
Ko‘ngilda uyg‘otar shirin hissiyot.
Men ham shu mayin sadolar aro,
Qishning g‘uborin supurdim yiroq.”

Qush inisi

Tongda daraxtda in ko‘rdim,
Qushga atalgan uy ko‘rdim.
Yasolmasman bundayin maskan,
O‘ziga tortar, shinam va ixcham.

Uycha ichra bor ikki tuxum,
Mehrda yonar yurak, ruhum.
Ota-onasi parvarish qilar,
Quyosh va oy yanglig‘ timsol bo‘lar.

Shu kundan boshlab asrayman uni,
Yo‘latmasman biror mushukni.
Daraxt yashnasa, qushlar ham qo‘nar,
Qalbim sevgan narsam ko‘payar.

Ikkilanish

Kech tushda daryo sokin oqadi,
Men yong‘oqqa termulib asta,
O‘ylayman shunda ham bor ma‘no asli,
Yong‘oq ichra o‘nqir-cho‘nqirlar,
Ko‘rsatadi bir umr faslin,
Barcha chayqalishlar asli ichimda.

So‘nggi kunlar tanam zaif, yana o‘ylanaman,
Balki unga kerak ozuqa.
Ammo ong-chi, u ko‘proq muhtoj,
Ikkilanish ichra qoldim ovvora.

Fikrlarim chalkash, g‘alati.
O‘zga inson his etmoq mushkul,
Menday telba bir shoir qalbni
Faqt shoirilar tushunishi mumkin....

Translated from English into Uzbek by Nilufar Buriyeva